

Jahon iqtisodiyoti va diplomatiya universiteti huzuridagi  
“Talabalar Kengashi” to‘g‘risidagi

**NIZOM**

**I. Umumiy qoidalar**

1. Jahon iqtisodiyoti va diplomatiya universiteti huzuridagi “Talabalar Kengashi” (bundan buyon matnda “Talabalar Kengashi” deb yuritiladi) yuridik shaxs maqomiga ega bo‘limgan maslahat organi bo‘lib, u o‘z faoliyatida Tashqi ishlar vazirligi hamda Jahon iqtisodiyoti va diplomatiya universiteti rahbariyatiga hisobdordir.

2. “Talabalar Kengashi” o‘z faoliyatida O‘zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi va qonunlariga, O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlis palatalarining qarorlariga, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining farmonlari, qarorlari va boshqa qonun hujjatlariga, shuningdek, ushbu Nizomga amal qiladi.

3. “Talabalar Kengashi”ning vakolat muddati – bir (1) yil. Vakolat muddati tugagach, yangi chaqiriq “Talabalar kengashi” ish boshlagunga qadar o‘z faoliyatini davom ettirib turadi.

4. “Talabalar Kengashi” o‘z logotipi, a’zolarining ko‘krak nishonlari hamda belgilangan shakldagi guvohnomalariga ega bo‘ladi.

5. “Talabalar kengashi”ning rasmiy nomi:

a) davlat tilidagi:

to‘liq nomi – Jahon iqtisodiyoti va diplomatiya universiteti huzuridagi Talabalar kengashi; qisqartirilgan nomi – Talabalar kengashi;

b) rus tilidagi:

to‘liq nomi – Студенческий Совет при Университете мировой экономики и дипломатии; qisqartirilgan nomi – Студенческий Совет;

c) ingliz tilidagi:

to‘liq nomi – Students Council under the University of World Economy and Diplomacy; qisqartirilgan nomi- Students Council

**II. “Talabalar Kengashi”ning maqsad va vazifalari**

6. “Talabalar Kengashi”ning maqsadi – Jahon iqtisodiyoti va diplomatiya universiteti talabalarini qo’llab-quvvatlash, ularning huquqiy ongi va savodxonligini oshirish, jamiyatda yoshlarni siyosiy faol qatlamga aylantirish hamda ularning siyosiy-huquqiy bilim va ko’nikmalarini amalda boyitish, qonunchilik va qonun ijodkorligi jarayoniga yoshlarni jalb qilish va qabul qilinayotgan qonunlarni talaba-yoshlar orasida keng targ‘ib qilish orqali ularning kengash hayotiga daxldorligini oshirish;

7. “Talabalar Kengashi”ning vazifalari quyidagilardan iborat:

7.1. Talaba-yoshlarning huquq va erkinliklari hamda qonuniy manfaatlarini himoya qilishga oid qonun hujjatlarini takomillashtirish yuzasidan takliflar ishlab chiqish;

7.2. Talabalarning siyosiy bilimlarini oshirish, ularda vatanparvarlik ruhini kuchaytirishda vakillik organlari bilan hamkorlik qilish;

7.3. Yoshlarning Kengash faoliyati va qonun ijodkorligining barcha bosqichlaridan xabardorligini oshirish;

7.4. Qonun ijodkorligi faoliyati sifatini oshirish yuzasidan yangi va ustuvor yo‘nalishlarni belgilashda yoshlarning faolligini oshirish;

7.5. Talaba-yoshlar o‘rtasida huquqbazarliklarning oldini olish bo‘yicha samarali mexanizmlarni joriy etish bo‘yicha takliflar ishlab chiqish;

7.6. Yoshlarning huquqiy madaniyatini yuksaltirishga, ularning intellektual, ma’naviy-axloqiy, estetik, badiiy dunyoqarashini kengaytirishga ko‘maklashish.

### **III. “Talabalar Kengashi”ning huquqlari**

8. “Talabalar Kengashi” quyidagi huquqlarga ega:

8.1. Jahon iqtisodiyoti va diplomatiya universiteti majlislarida ishtiroy etish;

8.2. Tegishli xalqaro va xorijiy tashkilotlar bilan belgilangan tartibda o‘zaro tajriba va axborot almashishni amalga oshirish;

8.3. Qonunda taqiqlanmagan manbalar hisobidan o‘z byudjetini yaratish.

#### **IV. “Talabalar Kengashi” a’zosini saylash**

9. “Talabalar Kengashi”ning Vasiylik Kengashi (bundan buyon matnda Vasiylik Kengashi deb yuritiladi) “Talabalar Kengashi”ga saylovn o’tkazish uchun tuziladigan fakultet komissiyalariga boshchilik qiladi va ushbu Nizomga muvofiq saylov o’tishini ta’minlaydi.

Vasiylik Kengashi tarkibi quyidagi vakillardan shakllantiriladi:

1. JIDU bitiruvchilari;
2. JIDU iqtidorli yuqori bosqich talabalari.

10. “Talabalar Kengashi”ga saylovn tashkil etish va o’tkazish uchun universitet komissiyasi tomonidan saylovga kamida o’n besh kun qolganida fakultet komissiyasi tuziladi.

Fakultet komissiyasi tarkibi quyidagi tashkilotlarning vakillaridan shakllantiriladi:

1. Fakultet dekani;
2. Fakultet dekani muovinlari;
3. Tyutorlar.

Fakultet komissiyalari tegishli saylangan a’zolar universitet komissiyasi tomonidan ro‘yxatga olinganidan keyin o‘z faoliyatini tugatadi.

11. Saylov boshlanganligi avvalgi chaqiriq “Talabalar Kengashi” a’zolarining vakolat muddati tugashidan kamida uch oy oldin universitet komissiyasi tomonidan e’lon qilinadi.

12. “Talabalar Kengashi”ga a’zolik uchun saylov kuni o’n sakkiz yoshga to’lgan O‘zbekiston Respublikasi fuqarosi fakultet komissiyasiga yozma shaklda anketa taqdim etishi mumkin.

Ushbu Nizom talablariga mos keladigan anketa egalari ikki bosqichda saylanadi.

13. Birinchi bosqichda nomzodlarning anketalari fakultet komissiyalari tomonidan saralanadi. Komissiya nomzodlarni saylashda anketada berilgan savollarga bergen javoblaridagi quyidagi jihatlariga e’tibor qaratadi:

qonunchilik sohasidagi so‘nggi yangiliklar;

davlat boshqaruviga oid bilim va tasavvurlar;

jamiyatimizda amalga oshirilayotgan so‘nggi islohotlar haqidagi qarashlar;

huquqiy ong va huquqiy madaniyatning darajasi.

Birinchi bosqich yakuni bo‘yicha Komissiya 5 nafar nomzodni yashirin ovoz berish yo‘li bilan saylaydi.

14. Ikkinchi bosqichda nomzodlar saylov oldi dasturi taqdimoti bilan tegishli fakultet komissiyalarining suhbatidan o‘tkaziladi. Tegishli fakultet komissiyalari 1 nafar nomzodni yashirin ovoz berish yo‘li orqali saylaydi.

Saylovda quyidagilarga e’tibor qaratiladi:

nomzodlarning saylov oldi dasturlari yoshlarga oid muammolar va taklif etilayotgan yechim yo‘llari;

nomzodlarning notiqlik madaniyati, loyiha mazmunini tinglovchilarga yetkazishi;

bilimli va hozirjavobligi.

15. Har bir bosqich yakuni bo‘yicha bayonnama rasmiy lashtiriladi va Komissiya raisi tomonidan imzolanadi. Bayonnomaning bir nusxasi universitet komissiyasiga taqdim etiladi.

16. Shuningdek, saylangan yoshlardan tashqari fakultetlardan saylangan 1 nafardan iborat yoshlar “Talabalar Kengashi Raisi” lavozimi uchun saylovda ishtirok etishga tavsiya qilinadi.

17. Fakultet komissiyasi “Talabalar Kengashi Raisi” lavozimiga saylovda qatnashish uchun tavsiya etishda talabaning quyidagi jihatlariga e’tibor qaratadi:

siyosiy va huquqiy faolligi (loyihalarni tashkil etganligi yoki ishtiroki);

davlat boshqaruvi, yoshlarga oid davlat siyosati, sud-huquq, madaniyat, sport, fan-ta’lim sohalari samaradorligini oshirishga doir ilmiy qo‘lyozmalar, maqlolalar va qo‘llanmalar yozganligi yoki hammualliflikda ishtirok etganligi;

davlat mukofotlariga sazovor bo‘lganligi;

turli fan-ta’lim, madaniyat, sport va boshqa sohalardagi musobaqalar, olimpiadalar, bellashuvlardagi muvaffaqiyatlari;

OAVdagi faolligi, o‘zining ortidan yoshlarning ergashtirish salohiyati;

jamiyatdagi boshqa sohalardagi ko‘rsatgan faolligi.

## V. “Talabalar Kengashi” a’zosining maqomi

18. “Talabalar kengashi”ning a’zosi “Talabalar Kengashi”ning vakolatlari muddatiga jamoatchilik asosida saylanadi. Jahon iqtisodiyoti va diplomatiya universiteti “Talabalar Kengashi”ning a’zosi bir paytning o‘zida Qonunchilik palatasi deputati, Senat a’zosi yoki hududiy va mahalliy deputatlari bo‘lishi mumkin emas.

19. “Talabalar Kengashi”ning a’zosiga universitet “Talabalar Kengashi” komissiyasi tomonidan guvohnoma va ko‘krak nishoni beriladi. A’zo guvohnoma va ko‘krak nishonidan o‘z vakolatlari muddati mobaynida foydalanadi.

20. “Talabalar Kengashi” a’zosining huquqlari:

20.1. “Talabalar Kengashi” koordinatorligiga saylash va saylanish;

20.2. “Talabalar Kengashi” majlisida ko‘rib chiqilishi uchun masalalar taklif etish;

20.3. “Talabalar Kengashi” majlisining kun tartibi, muhokama qilinayotgan masalalarni ko‘rib chiqish tartibi hamda bu masalalarning mohiyati yuzasidan takliflar kiritish va mulohazalar bildirish;

20.4. “Talabalar Kengashi” tomonidan saylanadigan shaxslarning nomzodlari bo‘yicha fikr bildirish;

20.5. “Talabalar Kengashi” majlisidagi munozaralarda ishtirok etish, ma’ruzachi va raislik qiluvchiga savollar berish;

20.6. O‘z takliflarini asoslab berish uchun so‘zga chiqish va ovoz berish sabablari yuzasidan izoh berish;

20.7. “Talabalar Kengashi” majlisida raislik qiluvchiga majlisda muhokama qilinayotgan masala yuzasidan o‘z nutqi, taklifi yoki mulohazasi matnini topshirish;

20.8. “Talabalar Kengashi”ning a’zosi tegishli majlislarida ko‘rib chiqilayotgan barcha masalalar bo‘yicha hal qiluvchi ovoz huquqididan foydalanadi.

21. “Talabalar Kengashi” a’zosining majburiyatları:

21.1. Amaldagi qonun hujjatlariga, ushbu Nizom talablariga to‘liq rioya qilish, shuningdek, “Talabalar Kengashi”ning qarorlarini bajarish;

.2. “Talabalar Kengashi”ning asosiy maqsad va vazifalarini amalga oshirishda faol ishtirok etish;

21.3. “Talabalar Kengashi”ning majlislarida qatnashish, ovoz berishda “Talabalar Kengashi” Reglamentida belgilangan tartibda shaxsan ishtirok etish;

21.4. “Talabalar kengashi”ning majlislarida hamda qo‘mita majlisida ishtirok etish imkoniyati bo‘lmagan taqdirda, bu haqida “Talabalar Kengashi”ga xabar qilish;

21.5. “Talabalar Kengashi”ning talaba-yoshlar o‘rtasida va jamiyatda ta’sir kuchi hamda obro‘sini oshirishga o‘z hissasini qo‘shish;

21.6. “Talabalar Kengashi” faoliyatini targ‘ib qilish va qo‘llab-quvvatlash;

21.7. Yoshlar o‘rtasida jinoyatchilik va huquqbuzarliklarni oldini olish borasidagi ko‘nikmalarini shakllantirishni targ‘ib qilish;

21.8. “Talabalar Kengashi”ning barcha tadbir, dastur va loyihalarida faol qatnashish;

21.9. “Talabalar Kengashi”ning oldiga qo‘yilgan vazifalarni mustaqil hal etishda “Talabalar Kengashi” Raisi bilan kelishish va bu faoliyat haqida xabardor qilib borish;

21.10. A’zolarning zimmasida qonunlarga muvofiq boshqa majburiyatlar ham bo‘lishi mumkin.

22. “Talabalar Kengashi” a’zosining vakolatlari quyidagi hollarda muddatidan ilgari tugatiladi:

22.1. U o‘z vakolatlarini zimmasidan soqit qilish haqida yozma ariza bergen taqdirda;

22.2. U qonunga ko‘ra “Talabalar Kengashi” vakolatlarini amalga oshirishiga nomuvofiq bo‘lgan lavozimga saylangan yoki tayinlangan taqdirda;

22.3. U Jahon iqtisodiyoti va diplomatiya universiteti talabalari safidan chetlashtirilgan taqdirda;

22.4. U vafot etgan taqdirda.

Shuningdek, “Talabalar Kengashi” a’zoligidan mahrum qilish to‘g‘risidagi masala “Talabalar Kengashi” majlisida ko‘rib chiqilib, uning umumiy sonining ko‘pchilik ovozi hal etilishi mumkin.

## **VI. “Talabalar Kengashi” faoliyatini tashkil etish**

23. “Talabalar Kengashi” faoliyatining tashkiliy shakli uning qoida tariqasida, yiliga kamida to‘rt marta o‘tkaziladigan yalpi majlislaridir. “Talabalar Kengashi” majlislari ochiq va oshkora o‘tkaziladi.

“Talabalar Kengashi” majlislarini tashkil qilish va o‘tkazish tartibi “Talabalar Kengashi” Reglamentida belgilanadi.

24. “Talabalar Kengashi” kiritilgan masalalar yuzasidan, shuningdek “Talabalar kengashi”ning ichki faoliyatini tashkil etish masalalari yuzasidan qarorlar qabul qiladi.

“Talabalar Kengashi” qarorlari “Talabalar Kengashi” a’zolari umumiyl sonining ko‘pchilik ovozi bilan qabul qilinadi.

25. “Talabalar Kengashi” Raisi:

25.1. “Talabalar Kengashi”ning majlislarini chaqiradi, ularda raislik qiladi;

25.2. “Talabalar Kengashi” muhokamasiga kiritiladigan masalalarni tayyorlashga umumiy rahbarlik qiladi;

25.3. “Talabalar Kengashi” qo‘mitalari va komissiyalarining faoliyatini muvofiqlashtirib boradi;

25.4. “Talabalar Kengashi” tomonidan ishlab chiqilgan va ma’qullangan yoshlarga oid takliflarni Juhon iqtisodiyoti va diplomatiya universiteti rahbariyatiga taqdim etadi;

25.5. “Talabalar Kengashi” xalqaro aloqalar bo‘yicha taraflar bilan o‘zaro kelishgan holda hamkorlikka kirishadi;

25.6. “Talabalar Kengashi” qarorlarini imzolaydi;

25.7. “Talabalar Kengashi” qarorlarining ijrosi ustidan nazoratni tashkil etadi;

25.8. Talabalik safidan chetlashtirilayotgan talabalar buyruqlariga veto qo‘yish huquqiga ega;

25.9. O‘z vakolatlari doirasida boshqa masalalarni hal etadi.

26. “Talabalar Kengashi”ning faoliyatini samarali tashkil etish maqsadida “Talabalar Kengashi” Kengashi tuziladi.

“Talabalar Kengashi” Vasiylik Kengashining tarkibiga universitetning bitiruvchi hamda faol talabalaridan iborat 3 nafar talaba kiradi.

“Talabalar Kengashi”ning Vasiylik Kengashi:

- 26.1. “Talabalar Kengashi” majlisining kun tartibi loyihasini shakllantiradi;
- 26.2. Kengash ishini muvofiqlashtirib boradi;
- 26.3. Yoshlar masalasiga oid takliflar loyihasini “Talabalar Kengashi” ko‘rib chiqishi yoki uni ko‘rib chiqishni rad etish to‘g‘risida qaror loyihasini dastlabki tarzda ko‘rib chiqish uchun mas’ul bo‘lgan departamentning xulosasiga ko‘ra qaror qabul qiladi;
- 26.4. “Talabalar Kengashi” a’zosining fakultetdagi ishini tashkil etishga ko‘maklashadi;
- 26.5. “Talabalar Kengashi” faoliyatini tashkil etish bilan bog‘liq boshqa masalalarni hal etadi.

Kengash o‘z vakolatiga kiradigan masalalar bo‘yicha o‘z a’zolari umumiyligi sonining ko‘pchilik ovozi bilan qarorlar qabul qiladi.

“Talabalar Kengashi” Vasiylik Kengashi Raisi Kengashning majlislarini olib boradi va uning qarorlarini imzolaydi.

27. “Talabalar Kengashi” tomonidan uning a’zolari orasidan “Talabalar Kengashi”ning vakolatlari muddatiga departamentlardan iborat tarkibda qo‘mitalar tuziladi.

“Talabalar Kengashi”da quyidagi departamentlar tuziladi:

27.1. Kengash Raisi — Jahon iqtisodiyoti va diplomatiya universiteti talabalari manfaatlarini ma’muriyat va boshqa manfaatdor tashkilotlar oldida himoya qiluvchi birinchi shaxs hisoblanadi. Kengash Raisi Kengash a’zolari va Talabalar Kengashi strategiyasini belgilovchi va boshqaruvchi shaxs hisoblanadi.

Kengash Raisi Kengash qarorlari asosida har bir a’zoning ishini tartibga soladi. U departamentlarga aniq vazifalar qo‘yishi va topshiriqlarning bajarilishi ustidan nazorat o‘rnatadi.

Kengash Raisi Jahon iqtisodiyoti va diplomatiya universiteti Ilmiy Kengashining rasmiy a’zosi sifatida ko‘rib chiqilishi va talabalarning muammolari bo‘yicha veto huquqiga ega.

27.2. Raisning axborot siyosati masalalari bo‘yicha maslahatchisi — Matbuot kotibi — ushbu sohadagi barcha munosabatlarni o‘rnatadi. Raisning axborot siyosati masalalari bo‘yicha maslahatchisi hisoblanib, Kengash faoliyatini doimiy ravishda ijtimoiy tarmoqlarda yoritish uchun javobgar hisoblanadi.

27.3. Tashqi aloqalar masalalari bo'yicha maslahatchi — xalqaro konferensiyalar, davra suhbatlari, mehmon ma'ruzachilar seminarlarini tashkil etish, shuningdek, mahalliy va xalqaro tashkilotlar bilan hamkorlikda BMT modeli, ShHT modeli, YeXHT modeli, MDH modeli, YeI modeli hamda boshqa turli xil xalqaro darajadagi loyihalarni amalga oshiradi.

27.4. Ilmiy-tadqiqot masalalari bo'yicha maslahatchi — talabalarning ilmiy maqolalarini jahonning yetakchi журнallarida chop etishga ko'maklashadi. Universitet professor-o'qituvchilari ko'magida ilmiy nashrlar yo'nalishida mahorat darslarini tashkil etish bo'yicha yaqindan ish olib boradi.

27.5. Talabalar ishlari bo'yicha maslahatchi — talabalar va Universitet ma'muriyati o'rtasida samarali hamkorlikni ta'minlash, talabalarning huquq va manfaatlarini himoya qilish, ularning har tomonlama rivojlanishiga ko'maklashish, universitet muhitiga moslashishi va salohiyatini ro'yobga chiqarish uchun javobgardir.

27.6. Loyihalarni boshqarish va tashkiliy masalalar bo'yicha maslahatchi — belgilangan vaqtda maqsadlarga erishish va muvaffaqiyat mezonlariga javob berish uchun jamoaning ij jarayonini boshqaradi. Shuningdek, u Talabalar Kengashi tomonidan tasdiqlangan rasmiy loyihalardagi tadbirlar uchun javobgardir. Shuningdek, u universitetda tashkil etiladigan UWED WEEK tadbirining asosiy tashkilotchisi hisoblanadi.

27.7. Chet tillar masalalari bo'yicha maslahatchi — JIDUning xorijiy tillar kafedralari bilan yaqin hamkorlikda ish olib boradi. Uning asosiy vazifasi talabalar o'rtasida xorijiy kommunikativ kompetensiyani shakllantirish hisoblanadi.

27.8. Volontyorlik masalalari bo'yicha maslahatchi — JIDU ko'ngillilar ro'yxatini shakllantirib, ularni O'zbekistondagi muhim siyosiy jarayonlarda vololntyor-tarjimon sifatida faoliyat olib borishini ta'minlaydi.

27.9. Sport masalalari bo'yicha maslahatchi — universitetdagi barcha sport tadbirlari hamda sport klublari uchun mas'ul hisoblanadi.

## VII. Yakunlovchi qoidalar

29. Jahon iqtisodiyoti va diplomatiya universitet rektori tomonidan "Talabalar Kengashi" a'zolariga davlat organlari, korxona, muassasa va tashkilotlarga ishga qabul qilinishlari jarayonida tavsifnomalar berilishi mumkin.

30. "Talabalar Kengashi"ning faoliyatini qayta tashkil etish va tugatish qonun hujjatlariga muvofiq amalga oshiriladi.

